

**Nozima Ziyodilloeva**

*O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti talabasi*

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Kecha talab yuqori bo‘lgan kasblar bugun eskirishi, yangi texnologiyalar esa mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bunday davrda bilim va ko‘nikmalar insonning eng katta boyligiga aylanadi. Ayniqsa, qizlarning ta‘lim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yaratilgan “Qizlar akademiyasi” platformasi minglab qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Tasavvur qiling, olis qishloqda yashovchi bir qizning katta orzulari bor. U dizayner bo‘lishni, tadbirkorlik sirlarini o‘rganishni yoki zamonaviy marketing yo‘nalishida faoliyat yuritishni istaydi. Ammo har doim ham bu orzularni amalga oshirish uchun zarur kurslar yoki mutaxassislarni topish oson emas. “Qizlar akademiyasi” ana shunday vaziyatlarda bilim va imkoniyatlarni qizlarning o‘z uylariga qadar olib kirayotgan platformaga aylandi. Mazkur platforma xotin-qizlarning ta‘lim olishi, kasbiy rivojlanishi va o‘z salohiyatini namoyon etishiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan. Platforma orqali foydalanuvchilar turli yo‘nalishlardagi bepul kurslardan foydalanishlari mumkin. Tadbirkorlik, marketing, grafik dizayn, psixologiya, salomatlik, huquqiy savodxonlik va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar qizlarning qiziqishlari hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan. Qizlar akademiyasining eng muhim jihatlaridan biri – uning hamma uchun qulayligidir. Bugun internetga ulangan telefon yoki kompyuterga ega bo‘lgan har qanday qiz ushbu platforma orqali bilim olish imkoniyatiga ega. Bu esa hududlar o‘rtasidagi ta‘lim imkoniyatlari tafovutini kamaytirishga xizmat qiladi. Endi muvaffaqiyatga erishish uchun poytaxtda yoki viloyat markazida yashash shart emas. Bilim olish istagi bo‘lsa, imkoniyat ham mavjud. Platformaning qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda ham xizmati katta. Ko‘plab qizlar yangi bilimlarni o‘zlashtirib, kichik biznes boshlash, frilans faoliyat bilan shug‘ullanish yoki o‘z loyihalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishyapti. Bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash va jamiyatdagi faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi raqamli asrda bilim olishning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. An’anaviy ta‘lim bilan bir qatorda onlayn platformalar ham yoshlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. “Qizlar akademiyasi” aynan shunday zamonaviy ta‘lim loyihalaridan biri bo‘lib, qizlarning o‘z ustida ishlashi va kelajagini mustahkam poydevor ustiga qurishida yordami beqiyos. Eng muhimi, ushbu platforma faqat bilim emas, balki ilhom manbasi ham. Chunki har bir muvaffaqiyatli ayolning ortida o‘z vaqtida berilgan imkoniyat, olingan bilim va unga ishongan insonlar turadi. “Qizlar akademiyasi” esa ana shu imkoniyatlarni yaratishga intilayotgan loyiha sifatida e‘tiborga loyiq. Xulosa qilib aytganda, “Qizlar akademiyasi” bugungi O‘zbekiston qizlari uchun oddiy ta‘lim platformasi emas, balki orzular sari yo‘l ochuvchi raqamli maydon ham bo‘ldi. Bu yerda olingan har bir bilim, o‘zlashtirilgan har bir ko‘nikma va qo‘lga kiritilgan har bir yutuq kelajak sari qo‘yilgan

10-Iyun, 2026-yil

muhim qadam hisoblanadi. Zero, bilimli qiz — bilimli oila, bilimli jamiyat va porloq kelajak demakdir.